

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIKNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

Mirsaatov Sanjarali Imamaliyevich
Yunusobod tumani IIO FMB Tashkiliy bo'lim boshlig'i

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali siz tadqiqot mavzusining dolzarbliji, predmeti, ob'ekti, vazifalari, profilaktika inspektorlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi tushunchasi, ushbu hamkorlikning jinoyatlarning barvaqt oldini olishdagi ahamiyati, bugungi kundagi holati, shuningdek ushbu hamkorlikdagi muammo va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar ishlab chiqililgan.*

Kalit so`zlar: *predmeti, ob'ekti, vazifalari, profilaktika inspektorlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Qabul qilingan yangi Konstitutsiyamizda ham asosiy Qonunimizga fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish, davlat boshqaruvi va jamiyat hayotida aholining turli qatlamlari ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan bir qator yangi qoidalar kiritilishi nazarda tutilgan. Jumladan, Konstitutsyaning **56-moddasiga davlatning fuqarolik jamiyati institutlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan vazifalarini belgilash taklif etilmoqda.**

Ko'plab xorijiy davlatlar amaliyotida bo'lganidek, O'zbekiston qonunchiligidagi ham fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahallalar, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va jamoat fondlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari, xayriya va diniy tashkilotlar fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi.

Bugungi kunda huquqbazarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish, ularni sodir etilish sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etishda fuqarolik jamiyati institutlari profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda faoliyat olib bormoqda. Ayniqsa mahallalar huquqbazarliklarni sodir etish sabablari va ularni oldini olishda profilaktika inspektorlari bilan yaqin hamkorlikda faoliyatni amalgalashmoqda.

BMT Inson huquqlari kengashining 2017 yilgi hisobotida fuqarolik jamiyati institutlari inson huquqlarini himoya qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish, kambag'allikni qisqartirish, global ochlikning oldini olish kabi muammolarni hal etishda muhim vosita sifatida e'tirof etilgan. Chunki ijtimoiy muammolarni hal qilishda fuqarolik jamiyati institutlari katta salohiyatga ega ekanligini takidlab o'tilgan.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida mehnat qobiliyatiga ega aholining 5-15 foizi «Uchinchi tarmoq» deb ataladigan fuqarolik jamiyati institutlarida faoliyat yuritadi. Bugun ijtimoiy yo‘nalishlarga jamoat tashkilotlari tomonidan davlat tashkilotlariga nisbatan uch barobar ko‘proq investitsiyalar jalb qilinadi. Fuqarolik jamiyati vakillarining 60 foizi ijtimoiy himoya va tibbiy yordam, shuningdek, ta’lim sohalarida xizmat ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda yurtimizda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishining yangi davri boshlandi, deb aytishimiz mumkin. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Harakatlar strategiyasi doirasida zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan normativ-huquqiy baza takomillashtirildi, nodavlat notijorat tashkilotlarining mavqeini kuchaytirish, ularning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan o‘nlab yangi qonun hujjatlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Prezidenti farmoni bilan tasdiqlangan **2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida** fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shakllarida qo‘llab-quvvatlash hajmini 2025 yilda 1,8 baravarga oshirish va ajratiladigan mablag‘ miqdorini 70 milliard so‘mga yetkazish vazifasi belgilangan.

I. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish.

Bu borada quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim:

1) “fuqarolik jamiyati” va “fuqarolik jamiyati institutlari” tushunchalarining huquqiy asoslarini mustahkamlash hamda ularning tashkiliy-huquqiy shakllarini takomillashtirish;

2) fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish hamda jamiyat rivojlanishiga qo‘sghan hissasini inobatga olgan holda ularning faoliyatini baholash mezonlari va metodologiyasini ishlab chiqish;

3) ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar va blogerlar faoliyatiga oid qonun hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish, ularni to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladigan qonun hujjatiga unifikatsiya qilish;

4) “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi hamda “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonunlar normalarini o‘zaro birlashtirgan holda sohadagi bo‘sliqlarni bartaraf qilish va to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladigan qonun hujjatiga unifikatsiya qilish;

5) ommaviy axborot vositalarining faoliyati yo‘nalishlari bilan bog‘liq barcha davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish;

6) nodavlat notijorat tashkilotlarining ro‘yxatga oluvchi organ bilan bog‘liq barcha davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish;

7) fuqarolik jamiyatini ilmiy-nazariy o‘rganuvchi, uning rivojlanishini doimiy tahlil qilib boruvchi tahliliy, ilmiy-o‘quv laboratoriyalarni (aql markazlarini) tashkil etish;

8) fuqarolik jamiyati rivojlanishi masalalari bo'yicha amaliy va fundamental tadqiqotlar o'tkazish;

9) nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarini tashkil etish;

10) kasaba uyushmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda ularning a'zolari soniga qo'yilgan talabni qayta ko'rib chiqish, kasaba uyushmalari tomonidan kasbiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan, ularning mehnatga oid, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish bo'yicha huquqlarini yanada kengaytirish;

11) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlarini mahalliy budgetdan moliyalashtirishni huquqiy tartibga solish;

12) fuqarolik jamiyati institutlarining Axloq kodekslarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

13) fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini bevosita tartibga soluvchi hamda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi qonunosti hujjatlarini yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjat shakliga o'tkazish;

14) fuqarolik jamiyati institutlarini ro'yxatdan o'tkazish va xorijiy manbalardan pul mablag'larini olish bilan bog'liq munosabatlarni soddallashtirish, byurokratik to'siqlarni bekor qilish;

15) Huquq himoyachilari haqidagi deklaratsiya va boshqa xalqaro hujjatlarni tahlil qilish, umumlashtirish hamda ular asosida huquq himoyachilari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish;

16) siyosiy partiyalarning rolini oshirish maqsadida xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining mahalliy hokimliklardan to'laqonli mustaqilligini ta'minlash.

II. Fuqarolik jamiyati institutlariga ko'mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish.

Bu borada quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim:

1) fuqarolik jamiyati institutlariga budjet mablag'larini aniq ijtimoiy maqsadlarni ko'zlagan holda ajratish mexanizmini hamda ulardan foydalanishning samaradorligini aniqlash bo'yicha indikatorlar ishlab chiqish;

2) ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalarni fuqarolik jamiyati institutlariga davlat granti shaklidan aniq yo'naltirilgan ijtimoiy buyurtma berish orqali moliyalashtirish amaliyotini kengaytirish;

3) davlat boshqaruvi organlari tomonidan bajarilayotgan vazifa va funksiyalarni fuqarolik jamiyati institutlari orqali amalga oshirish miqdorini ko'paytirish;

4) Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan

mablag'lar ajratilishini tartibga soluvchi hujjatlarni normativ-huquqiy hujjat sifatida qabul qilish va takomillashtirish;

5) Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlarining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish, ular tomonidan fuqarolik jamiyati institutlariga mablag'lar ajratish bo'yicha loyihalarni tanlash hamda ulardan foydalanishning samaradorligini monitoring qilishda jamoat fondining ijrochi rahbar organi mas'uliyatini oshirish;

6) "Fuqarolik jamiyati asoslari" fani bo'yicha o'quv dasturlari va qo'llanmalarini tayyorlash, uning asosida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari uchun doimiy ravishda maxsus o'quv kurslarini tashkil etish;

7) Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasining rolini sohaviy va hududiy moliyalashtirishda kengaytirish;

8) fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash bilan bog'liq masalalar yuzasidan davlat organlari rahbarlarining jamoatchilik eshituvini Jamoatchilik palatasi va hududiy jamoatchilik palatalari tomonidan har yili tashkil etish amaliyotini joriy etish;

9) fuqarolik jamiyati institutlarini faoliyatining samaradorligi nuqtai nazaridan shartli guruhlarga ajratish mezonini ishlab chiqish va ularga toifasidan kelib chiqib imtiyozlar belgilash;

10) fuqarolik jamiyati institutlari ta'sis hujjatlarida ko'rsatilmagan har qanday tadbirkorlik faoliyati turi bilan shug'ullanishi mumkinligining huquqiy asosini mustahkamlash;

11) fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining samaradorligini oshirish, faoliyat qamrovini kengaytirish, shuningdek, ularning moliyaviy ta'minotini mustahkamlash;

12) fuqarolik jamiyati institutlarining ixtisoslashuvini qo'llab-quvvatlash, sohaviy nodavlat notijorat tashkilotlarining uyushmalarini tashkil qilishni rag'batlantirish.

Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ta'lim sohalarida o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Jamoatchilik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2016 yili mamlakatimizda 8700 ta nodavlat notijorat tashkilotlari ro'yxatga olingan bo'lsa, hozirgi vaqtida ularning soni 10300 dan oshgan,

2022 yilning o'tgan davri mobaynida 547 ta jamoat tashkiloti ro'yxatga olingan. Misollardan ko'rinish turganidek, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash, nodavlat notijorat tashkilotlari mustaqilligini ta'minlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga katta e'tibor berilmoqda. Shu munosabat bilan amaldagi Konstitutsiyamiz qabul qilingan davrda yurtimizda atigi 95 ta jamoat tashkiloti faoliyat yuritgan. Mustaqillikning dastlabki yillarda asosiy e'tibor milliy davlatchilikni shakllantirish, jamiyatda barqarorlikni saqlash, turli sohalardagi jarayonlar ustidan davlat nazoratini o'rnatish, shu orqali dolzarb muammolarni yechishga qaratilgan edi, chunki davr taqozosi shuni talab qilgandi. Biroq, fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanmagan bunday sharoitlarda davlat nazoratining bir tomonlama kuchayishi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga davlat organlari aralashuvining kengayib borishi, davlat idoralari va ularning mansabdor shaxslari bilan jamoatchilik o'rtasida konstruktiv muloqotning yo'qolishi singari bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqargani ham hech kimga sir emas. Albatta, bunday sharoitda davlat fuqarolik jamiyati faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash vazifasini o'z zimmasiga olish imkoniga ega emas edi.

Ichki ishlar organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi 2896-soni qaroriga asosan huquqbazarliklar profilaktikasi masalalari bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni hamda bu boradagi ishlarning muvofiqlashtirilishini profolaktika inspektorlari amalga oshirishi belgilab qo'yilgan. Ushbu qarorga asosan profilaktika inspektorlari mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni o'tkazishda, oilaviy-maishiy nizolar masalalarini hal etishda, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, noqonuniy diniy tashkilotlar faoliyatiga chek qo'yish choralarini ko'rishda, fuqarolarning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqlariga rioya etilishini, diniy qarashlarning majburan singdirilishiga yo'l qo'yilmasligini ta'minlashda fuqarolar yig'inlari bilan hamkorlik qiladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Xo'jaqulov S.B. Huquqbazarliklar umumiyl profilaktikasini takomillashtirish: Monografiya / Mas'ul muharrir yu.f.d., dots. I.YU. Fazilov. □ T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. □ 4 b.
2. Xo'jaqulov S.B. Ichki ishlar organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyati: O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. 148 b.
3. Huquqbazarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish: O'quv qo'llanma / I. Ismailov, D. M. Mirazov, J. S. Muxtorov va boshq.;

prof. O‘. H. Muxamedovning umumiy tahriri ostida. □ T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. □ 52 b.

4. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya. Darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H. Rustamboyev. –T.: TDYUI nashriyoti, 2008. 79 bet.

5. Ziyodullayev M.Z. Aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash tizimlari: tarixi, buguni va xorij tajribasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 61.

6. Tartib-intizom va mas’uliyatni kuchaytirish, jinoyatchilikning oldini olish muhitini mustahkamlash – huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligining asosiy omilidir // Postda. – 2017. – 18 noyab.

7. O‘zbekiston terror xavfi eng past mamlakatlar ro‘yxatidan joy oldi // <https://sputniknews-uz.com> (16.11.2017 y. 17:03).

8. Ismailov I. Uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining oldini olishni nazariy va tashkiliy-huquqiy ta’minalash: Yurid. fan. d-ri. ... dis. – T ., 2006. – B. 198.